



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TAYLIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2021
maxsus son

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.

O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvar-
da № 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lim»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Alisher UMAROV
Nargiza RAXMANQULOVA
Nodira EGAMBERDIYEVA
Xolboy IBRAGIMOV
Shavkat QURBONOV
Roxatoy SAFAROVA
Islom ZOKIROV
Dono G'ANIYEVA
Lohar QARAXANOVA

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru

liya_2305@mail.ru

- 3 **U.M.Askarova**
Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash imkoniyatlari
- 8 **M.L.Boltayeva**
Fizika ta'limi jarayonida talabalarning mustaqil uy sharoitida laboratoriya mashg'ulotlarni tashkil etish imkoniyatlari
- 17 **M.M.Murtozayeva**
Talabalar ekologik kompetentligini rivojlantirishda amalga oshiriliyatgan ishlohotlar hamda nodavlat va notijarat tashkilotlarining o'rni
- 22 **M.A.Asqarova**
Kitobxonlik intellektual salohiyatni oshiruvchi vositasi sifatida
- 26 **M.X.Toshibekova**
O'quvchilarning o'quv-biluv kompetensiyasini shakllantirishda STEAM texnologiyasining ahamiyati
- 30 **D.A.Muminova**
Xorijiy tajribalarida kitobxonlik
- 36 **O.M.Asqarova, M.X.Asranbayeva**
Mahalla, oila va maktab hamkorligi modeli asosida noto'liq oilalarda bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash
- 42 **M.B.Usmanova**
O'quvchilarni badiiy usullar vositasida milliy axloq sifatlarini rivojlantirish yo'llari
- 47 **N.G.Gulamova**
Talaba-yoshlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodining o'rni
- 51 **J.Muxiddinova**
Bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchining ijodiy yondashuv kasbiy kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlari
- 56 **G.N.Ergasheva**
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida chet tilini o'qitishning samarali usullari
- 60 **K.R.Abdullayeva, M.B.Qodirova**
Xalq pedagogikasida milliy urf-odatlar, an'analar, udumlar, marosimlarning tarbiya vositasi sifatidagi o'rni
- 64 **D.A.Abdusamiyev**
O'qituvchi kasbiy deformatsiyasi va uning oldini olish tamoyillari
- 68 **U.Y.Azamov**
O'smirlarda ijtimoiy duny qarashni shakllantirish
- 72 **U.Tumanov**
O'qituvchi mehnat faoliyatida vaqtni to'g'ri tashkil etishga pedagogik yondashuv
- 77 **B.Z.Qayumov**
Talabalar o'quv faoliyatidan qoniqqanlik darajasining xususiyatlari
- 82 **S.X.Tojiboyeva**
O'quvchilarda ma'naviy qadriyatlarni Abu ibn Sino ta'limotlari asosida rivojlantirishni tashkil etishning funksiyalari
- 86 **G.Yo.Jumanazarova**
Oilashunos olim Abdurashid Munavvarov – dolzarb muammolar tadqiqotchisi sifatida
- 92 **D.Jabborova**
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda tolerantlik qobilayati shakllantirishda ijtimoiy muhitning ahamiyati
- 96 **Yu.A.Abiyeva**
O'quvchilarga iqtisodiy ta'lim-tarbiya berish sohasidagi tarixiy tajribalar
- 102 **G.N.Narullayeva**
Oila munosabatlarini gender tengligiga erishishning muhim jihatlarini
- 108 **G.A.Inamova**
Yuqori sinflarda ingliz tilini o'qitishda tinglab tushunish (listening) orqali o'qitishni shakllantirish va rivojlantirish
- 118 **R.Sh.Sharofutdinova**
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy faoliyatini rivojlantirish
- 124 **M.Muxamadaliyeva**
Boshlang'ich sinf sinflarda to'g'ra ishi va uning mazmun-mohiyati
- 130 **N.T.Mamatxanova**
Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari
- M.Azizov**
Turizmlar jarayonida o'quvchilarda ekologik madaniyatini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari

MAHALLA, OILA VA MAKTAB HAMKORLIGI MODELI ASOSIDA NOTO'LIQ OILALARDA BOLALARNI IJTIMOIIY HAYOTGA TAYYORLASH

O'.M.ASQAROVA,

Nam DU professori.

M.X.ASRANBAYEVA,

Falsafa fanlari doktori (PhD)

Maqolada noto'liq oilalarda bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda mahalla, oila va maktab hamkorligi, ijtimoiy-tarixiy tajribalar asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan masalalar xususida fikrlar bayon qilingan.

Tayanch so'zlar Mahalla, sog'lom turmush tarzi, sog'lom turmush tarzi, ta'lim-tarbiya, motivatsion bosqich, integrativ faoliyat, gerontopedagogik faoliyat, avlodlararo hamkorlik, hamkorlik tizimi, ijtimoiy hayot.

В статье изложены вопросы сотрудничества махаллы, семьи и школы в подготовке детей из неполных семей к социальной жизни, всестороннего развития подрастающего поколения на основе социально-исторического опыта, формирования их сознания, духовно-нравственных ценностей и мировоззрения, а также формирования у них общеобразовательных и профессиональных знаний, навыков и умений, развития способностей.

Ключевые слова: соседство, здоровый образ жизни, здоровый образ жизни, образование, мотивационный этап, интегративная деятельность, геронтопедагогическая деятельность, межпоколенческое сотрудничество, система сотрудничества, социальная жизнь.

The article describes the issues of cooperation between the mahalla, the family and the school in preparing children from single-parent families for social life, the comprehensive development of the younger generation on the basis of socio-historical experience, the formation of their consciousness, spiritual and moral values and worldview, as well as the formation of their general and professional knowledge, skills and abilities, the development of.

Key words Neighborhood, healthy lifestyle, healthy lifestyle, education, motivational stage, integrative activity, gerontopedagogical activity, intergenerational cooperation, system of cooperation, social life

Bugungi kunda hamkorlik muhitini tashkil etish, bolalarning ijtimoiy intellektini rivojlantirishda oila, maktab va mahalla hamkorligini yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Zero, 2020 yil 23 sentyabrda kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida aniq maqsadlar bo'yicha ijtimoiy-tarixiy tajribalar asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-



axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga, ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan masalalar belgilab berilgan. Yosh avlodga o'zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni singdirish bugunning istiqbolli rejasidir. Jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan hurfiylikdan qat'iy nazar yoshlarni jipslashtiradigan, xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan fuqarolari orasida milliy mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirish "Oila, mahalla, maktab hamkorligi" Konsepsiyasining asosiy maqsadidir. O'zbekistonda ro'y berayotgan o'zgarishlar "Oila, mahalla, maktab hamkorligi" yo'nalishidagi bola tarbiyasida oila, ota-ona, mahalla, maktabning quyidagi asosiy vazifalarini mazmunan yangilab hayotga tatbiq etishni taqozo qiladi.

1. Ota-ona, mahalla va ta'lim muassasalarining hamkorligini mustahkamlash, shu orqali ota-onalarning farzandlar tarbiyasidagi o'rni, majburiyati, o'zaro munosabati va mas'uliyatini kuchaytirishda noto'liq oila bolalarini ma'naviy-axloqiy muhitini sog'lomlashtirishda gerontopedagogika, milliy qadriyat va madaniyatni rivojlantirish.

2. Jamoat kengashlari faoliyatini metodik ta'minlash, ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya sifatini o'rganish va ularni yanada takomillashtirishga oid tadbirlarni amalga oshirish.

3. Voyaga yetmaganlarning qarovsizligi va ular tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni oldini olish, yoshlarni turli yot g'oyalar tahdididan himoya qilish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

4. O'quvchilarni dars jarayoniga to'liq jalb etish va bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash.

5. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali yurtimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, ayniqsa, ta'lim tizimidagi islohotlar haqida o'quvchilar, ota-onalar va keng jamoatchilikni uzviy xabardorligini ta'minlash.

6. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash.

Tadqiqot doirasida noto'liq oila va maktab hamkorligini ta'minlash bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning muhim vazifasi sifatida belgilandi.

Noto'liq oila va maktabning hamkorlikdagi faoliyati murakkab ko'rinishga ega bo'lib, tadqiqotda mazkur jarayon samaradorligini oshirishning pedagogik ta'minotini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratildi.

Motivatsion bosqichda integratsiya jarayonini o'qituvchi va ota-onalar tomonidan to'g'ri anglanishi uchun pedagogik shart-sharoit yaratiladi va "integratsiya – bu integrativ faoliyat uchun zarur shart-sharoitlarni aks ettiruvchi shaxsiy sifatlarni

rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qituvchi va noto'liq oiladagi ota yoki onalarning o'zaro pedagogik munosabatlarining yangi darajasi", degan tushuncha qaror toptiriladi.

Kommunikativ-faoliyatga yo'naltirilgan bosqich o'qituvchi va noto'liq oila o'zaro faoliyatini uyg'unlashuvi, shuningdek, noto'liq oila va maktabning pedagogik vazifalarining o'ziga xosligi, ularning pedagogik imkoniyatlari yuqori ekanligini anglashiga imkon beradi. Shuning uchun kommunikativ-faoliyatga yo'naltirilgan bosqichda o'qituvchi va ta'lim muassasasining standart talablari doirasida integrativ pedagogik faoliyatini hamkorlikda loyihalash va amalga oshirish, shuningdek, mazkur faoliyat natijalari asosida noto'liq oilalarning muammolarini o'zaro birgalikda hal etilishiga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Шaxsni ijtimoiylashtirishning asosiy sub'ektlari sifatida o'qituvchilar va noto'liq oilalarning o'zaro hamkorligini hamda hamkorlikning ta'minlanishini ta'minlaydigan katta pedagogik muhitni shakllantirish

Maqsad: Noto'liq oila va maktab hamkorligining pedagogik ta'minotini yaratish					
Metodologik blok	Vazifalar	Maktab va noto'liq oilalarning hamkorligini yo'lga qo'yish	O'qituvchi shaxsini yaxlit rivojlantirish maqsadida o'qituvchilar va noto'liq oilalarning birgalikdagi faoliyati hamda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni tahlil etish	Pedagogik hamkorlik sub'ektlarida bilish faolligi, turfa xil qiziqishlar, mas'uliyat hissi, o'zini-o'zi nazorat qilish, hurmat va sabrlikni rivojlantirishga erishish	
	Amaliy blok	Bosqichlari	1. Motivatsion. 2. Kommunikativ-faoliyatli. 3. Kognitiv. 4. Refleksiv		
Mazmuni va tashkiliy shart-sharoitlar		1. Interfaollik (ta'lim jarayonining asosiy sub'ektlari sifatida o'qituvchi va noto'liq oilalarning o'zaro birgalikdagi faoliyati). 2. Madaniyat bilan uyg'unlik (noto'liq oilalar ma'naviy-axloqiy muhitini sog'lomlashtirishda gerontopedagogika, milliy qadriyat va madaniyatni rivojlantirish). 3. Loyihalash (ta'lim muhitining o'ziga xosliklari bilan aloqadorlikda ta'lim muhitini loyihalash). 4. Majmuaviylik (integratsiya jarayoni ishtirokchilarida integrativ qobiliyatlarni shakllantirishni hisobga olish)			
Baholash-natijaviy blok	Mezonlari	Motivatsion	Kommunikativ-faoliyatga doir	Kognitiv	Refleksiv
	Ko'rsatkichlari	Hamkorlikka o'qituvchilar va noto'liq oilalarning intilishi hamda ijobiy munosabati	O'qituvchilar va noto'liq oilalarning pedagogik nuqtai nazarlarining mosligi, shuningdek, ularning hamkorlikda integrativ faoliyatni loyihalash va uni amalga oshirish	O'qituvchilar va noto'liq oilalarning pedagogik integrativ faoliyatning nazariy asoslarini o'zlashtirishi	Mazkur jarayonni takomillash-tirish uchun o'qituvchilar va noto'liq oilalarning faoliyatini integratsiyala-sh modelini amalga oshirish darajasini tahlil qilish
	Darajalari	Yuqori, o'rta, past			
	Natija	Maktab va noto'liq oilalarning hamkorlikdagi faoliyatini integratsiyalash jarayonining pedagogik ta'minoti yaratildi			



hisobga olib, har bir daraja uchun ko'rsatkichlar aniqlashtirildi (2-jadval).

2-jadval

Noto'liq oila va maktab hamkorligini ta'minlash bosqichlarini amalga oshirish samaradorligi ko'rsatkichlari

Darajasi	Noto'liq oila va maktab hamkorligini ta'minlash bosqichlari			
	Motivatsion	Kommunikativ faoliyatgadoir	Kognitiv	Refleksiv
Yuqori	Maktab va noto'liq oilalarda hamkorlik jarayoniga kasbiy va shaxsiy motivatsiya mavjud, ta'lim-tarbiya jarayonini birga amalga oshirish lozimligini tushunishadi	Hamkorliknimalga oshirishgajodiy yondashuv tayanch pedagogikqobiliyatlar shakllangan kasbiy-pedagogiko'zini-o'zi rivojlantirishga yo'milgan	Noto'liq oila va maktab hamkorligigadoir nazariybilimlarga ega, nazariy tasavvurlansosida birgalikdatadbirlarni loyihalashtiradi	Noto'liq oila va maktab hamkorligida mustaqilrefleksiv tahlilko'nikmasiga ega mexanizmlari shakllangan
O'rta	Noto'liq oila va maktabhamkorligi jarayoniga ijtimoiy motivatsiya mavjud, ta'lim-tarbiya jarayonini birga amalga oshirish lozimligini to'liq tushunishmaydi	Noto'liq oila va maktab hamkorligigaxoid metodiktavsiyalarga asoslanganholda integratsiyanimmalga oshiradi zyrim pedagogikqobiliyatlar shakllangan integrativ vazifalarnihal etishda qiyinchiliklarga duch keladi	Noto'liq oila va maktab hamkorligigadoir nazariybilimlarga ega, nazariy tasavvurlansosida birgalikdatadbirlarni qisman loyihalashtiradi	Noto'liq oila va maktabhamkorligi faoliyat refleksiyasini tayyornamuna asosidaamalga oshiradi hamkorlikka tayyorgarlik darajasi yetarli emas
Quyi	Noto'liq oila va maktabhamkorligi jarayoniga pragmatik motivatsiya mavjud, jarayonni birga amalga oshirish istagi mavjud emas	Hamkorlikdagifaoliyatni tashkiletishgatayyor emas, pedagogik qobiliyatlar shakllanmagau birgalikdatadbirva mashg'ulotlarnitashkil etishgaqiynaladi	Noto'liq oila va maktab hamkorligigadoir nazariybilimlarga ega emas, intuitiv tasavvurlansosida birgalikdatadbirlarni qisman loyihalashtiradi	O'ziningfaoliyatini tahlil qilishga qiynaladi o'z-o'zini adekvatbaholay olishqobiliyati mavjudemas

Noto'liq oila va maktab hamkorligini ta'minlash orqali bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda maktabning vazifalari quyidagicha belgilangan:

- o'quvchi yoshlarga puxta bilim berish;
- jamiyat ko'zda tutgan sifatlarda tarbiyalashni ta'minlash;
- o'zining o'quv-tarbiyaviy vazifalaridan oilani xabardor qilib turish.

Yuqoridagilardan tashqari noto'liq oila va maktab hamkorligini ta'minlash orqali bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash tashkiliy ishlari mavjud bo'lib, bular ota-onalar yig'ilish va anjumanlaridir. Mazkur yig'ilish va anjumanlarda juda ko'p muammolar: «Bolalarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash», «Bolalar tarbiyasida ota-onaning obro'si», «Bolani oilada jismoniy va aqliy jihatdan tarbiyalash yo'llari» kabi masalalar ko'rib chiqiladi hamda adekvat qarorlar qabul qilinadi. Ota-onalar kengashlarining ota-onalarning pedagogik savodxonlagini oshirish,

1-rasm. Oila va maktabning hamkorlikdagi faoliyati modeli

Noto'liq oila va maktab hamkorligi pedagogik ta'minotining muhim bosqichi refleksiya bilan bog'liq bo'lib, o'qituvchi va noto'liq oilalar ota yoki onalari o'zlarining pedagogik faoliyatining samaradorligini tahlil etishadi, qiyinchiliklar, muammolar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni aniqlashtirishadi. Shuni qayd etish lozimki, refleksiv tajriba o'qituvchi va noto'liq oilalar uchun alohida-alohida tarkib toptirilishi yoki jamoaviy, ya'ni maxsus tashkil etilgan ta'limiy muhitda amalga oshirilishi mumkin. Refleksiv bosqichning natijalari uzluksiz mustaqil ta'limga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlanishi, shaxsiy pedagogik madaniyatni rivojlantirish imkoniyatining anglanishi, pedagogik integratsiya jarayonining muhimligini tushunib yetilishida o'z aksini topadi (1-jadvalga qarang).

Yana bir jihatni ta'kidlab o'tish lozimki, taklif etilgan model invariant tarkibiy asoslarga ega bo'lib, barcha bosqichlarda uni oilaning o'ziga xosliklari (tarkibi, ijtimoiy holati, tarbiyaviy imkoniyatlari, diniy mansubligi) bilan bog'liqlikda amalga oshirilishi mumkin.

1-jadval

Noto'liq oila va maktab hamkorligining pedagogik ta'minoti samaradorligini baholash mezonlari

Bosqichlari	Mezonlar
Motivatsion	Oila muhitini o'rganadi, katta avlod tajribasini ishga soladi noto'liq oilalarning ijobiy-emotsional munosabati, zamonaviy maktab uchun integratsiya jarayoni zarurligining ijtimoiy ahamiyatining anglanishi
Kommunikativ-faoliyatga doir	O'qituvchi va noto'liq oilalarning o'z faoliyatining o'ziga xosliklarini aniq ko'ra olish; o'zaro tarbiyaviy imkoniyatlarini birlashtira olish; hamkorlikda ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish; avlodlararo hamkorlik, ma'naviy-axloqiy xususiyatlar transformatsiyasi gerontopedagogik faoliyatni samarali tashkil etish
Kognitiv	jamiyat muhitida mavjud muammolar va ularning ta'sir doiralari (ichki, tashqi) tashkiliy-metodik jihatlarini tahlil, nazariy va metodik bilimlarning to'liqligi noto'liq oilalarda hamkorlik tizimi haqida tasavvurlarining shakllanganligi
Refleksiv	Ta'lim amaliyotini tahlil etish, pedagogik muammolarni anglash, qiyinchiliklarni bartaraf etishga doir pedagogik faoliyatni loyihalashtirish pedagogik maqsad va vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish, maktab va noto'liq oilalarining ta'lim-tarbiya jarayonida yo'l qo'yadigan xatolarining anglash; refleksiv qadamlar ketma-ketligini aniqlashtirish

Noto'liq oila va maktab hamkorligining pedagogik ta'minotini amalga oshirish bosqichlari, har bir bosqich samaradorligi mezonlarini aniqlash orqali shunga amin bo'lindiki, ularning har biri xususiy shkala bo'yicha o'lchanishi va baholanishi lozim. Ularning hammasi uchun umumiy shkala sifatida natijalarni darajaviy- yuqori, o'rta va past tavsifi asosida tahlil etish imkoniyati aniqlandi. Noto'liq oila va maktab hamkorligining murakkabligi va ko'p o'lchamga egaligini

ayrim (noto'liq oila) ota-onalar bilan ishlash, ota-onalarni maktab ishlariga (mas'ullikka) jalb etish kabi tashkiliy ishlar ham noto'liq oila bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Noto'liq oila bolalarini ijtimoiy hayotga tayyorlashda mahallaning ham o'zini beqiyos, chunonchi:

1. Noto'liq oilalar bilan muntazam aloqada bo'lish.
2. Mahallada yashaydigan noto'liq oilalarning moddiy sharoitlarini o'rganib chiqish, moddiy yordamlar uyushtirish.
3. Bayramlarda alohida noto'liq oilalarga yordam, tabriklarni tashkilotlar bilan birga uyushtirish.
4. Mahalla bilan hamkorlikda jinoyatga moyilligi bor bolalar istiqomat qiladigan noto'liq oilalarni hisobga olish va ular bilan ishlash.
5. Qariya va qarovsiz bolalari bor noto'liq oilalarga g'amxo'rlik qilish.

Mahalladagi imkoniyatlardan kelib chiqqan holda turli to'garaklar, mahalla kutubxonasini tashkil etish, bular orqali noto'liq oila bolalari va yolg'iz ayollar ongiga sog'lom turmush tarzi tamoyillarini singdirish, ularni jamiyatdagi demokratik jarayonlar bilan, islohotlar bilan tanishtirib borish, ayniqsa "Axloq" mavzuida oqsoqollar, mahallaning obro'-e'tiborli kishilari yordamida yoshlar, xotin-qizlar uchun davra suhbatlari, uchrashuvlar, savol-javob kechalari tashkil etish, xotin-qizlar va noto'liq oila bolalarining o'z oila a'zolari yoki atrofdagi kishilar tomonidan har qanday kamsitishlarga yo'l qo'ymaslikka erishish maqsadga muvofiq.

Mahalla aholisining madaniy hordiq chiqarish masalasini hal etish (adabiyotshunos, jumalist, adib, olimlar, madaniyat xodimlarining uchrashuvlarini, konsert va sahna spektakllarini tashkil etishni yo'lga qo'yish) va noto'liq oilalar ishtirokini ta'minlash.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, noto'liq oila bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash masalasi bo'yicha mahallalar, jamoalarni birgalikda hamkorlikdagi harakatlari yaxshi natijalarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduraimov P. Milliy tarbiya tamoyillari // Kasb-ta'lim j. – T.: 2002. 4-son. – 16 b.
2. Inomova M. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 1999. – 152 b.
3. Inakov Q. Hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini takomillashtirish. – Namangan.: NamDU, 2019, – 134.
4. Safarov O., Mahmudov M. Oila ma'naviyati. – T.: Ma'naviyat, 2009. – 246.